



## FEATURES OF STYLISTIC FOLKLORE

(On the example of Erkin Vahidov's epic "Rebellion of Spirits")

Ashurova Parvina Nurbobo qizi,

Master of the National University of Uzbekistan

### **ABSTRACT**

In recent years, the study of folklore samples developed by individual artists has developed significantly. After all, the national values of the people, the national identity, go back to the roots of folklore, formed over the centuries, passing through a series of times. Gaffor Muminov, a folklorist, says: "It must be acknowledged that folk art has had a direct and indirect effect on the mind of a true artist throughout his life.

Boshqacha qilib aytganda, folklor yozuvchi ongiga va tushunchasi, xotirasiga bevosita o'zlashtiriladigan ijodiy materialgina bo'lib qolmay, ayni chog'da yozuvchi tasavvurini qo'zg'ovchi, unga turtki beruvchi boy haqiqiy assotsiatsiyalar tug'diruvchi, tasvirlanuvchi voqelikni to'la va o'z bo'yog'ida bera oluvchi turli murakkab taassurotlar yaratuvchi kuchli badiiy xazinadir". Folklor unsurlarining yozma adabiyotga ijodkor tomonidan singdirib yuborilishi adabiyotshunoslikda folklorizm atamasini yuzaga keltirgan. "Folklorizm" so'zi ilk bor XIX asrda fransuz folklorshunosi Sebiya tomonidan qo'llangan. Bu termin "folklor bilan qiziqish va shug'ullanish" ma'nosini ifodalaydi. XX asrning 30 yillariga kelib M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitsistikada folklordan foydalanishni "folklorizm" deb atadi. Shu asrning 60 yillarida "folklorizm" atamasiga xalqaro tus berildi va keng miqyosda qo'llana boshlandi. O'zbek adabiyotida folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish o'tgan asrning 80-yillarida avj oldi. Bahodir Sarimsoqov o'zbek adabiyotida birinchilardan bo'lib folklorizm nazaryasini ishlab chiqdi. U o'zining "Folklorizmlar tipologiyasi masalasiga doir" maqolasida shunday deydi: "Folklorizm atamasi professional san'atkor tomonidan zamonaviy san'at va adabiyotga olib kirilgan folklor materialining tabiatini juda aniq ifodalaydi. Chunki yozma adabiyot yoki boshqa san'at turlari tarkibidagi folklorga oid barcha material endi o'zining tabiiy ravishdagi yaratilishi, jonli yashashi va funksiya bajarishidan iborat bo'lmay, balki o'sha materialning professional ijodkor tomonidan, birinchi navbatda, davr talabi, qolaversa, uning ijod manerasi va uslubi kabilar bilan bog'liq holda ijodiy maqsadi asosida izchil yo'naltirilgan, ikkinchi marta jonlantirilgan shaklidan iborat. Ikkinchi jonlanish, boshqacha aytganda,



qayta jonlanish va funksiya bajarish esa doimo folklorizmlarning birinchi tabiiy yaratilish hamda funksiya bajarishidan ma'lum darajada farqlanib turadi. Shu jihatdan qaralsa, yozma adabiyot tarkibida folklor yo'q, balki folklorizmlar mavjud deb xulosa chiqarish mumkin." Tadqiqotchi fikrini davom ettirib, dastlab "folklor" va "folklorizm" atamalarini farqli jihatlarini keltirib o'tadi. Bu borada O. Sobirovning tadqiqotlarini biroz tanqid qilib o'tadi.

Tadqiqotchi folklorizmlarni struktural va badiiy asar to'qimasida bajargan funksiyasiga ko'ra ikki tipga ajratadi: oddiy va murakkab folklorizmlar. Yuqorida ta'kidlab o'taganimizdek, folkloarning folklorizmga aylanish jarayonini biz individual ijodkor siyosida XX asr she'riyatining zabardast vakili Erkin Vohidov she'riyatida misolida kuzatamiz. Shoiring she'rlari ayniqsa, dostonlari murakkab folklorizm tipiga kiruvchi stilizatsiya va sentizlashgan turlariga misol bo'la oladi. Stilizatsiya xarakteridagi folklorizmlar asarning badiiy to'qimasini, uning g'oyaviy-tematik asoslarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham u ijodkorlardan folklor janlarining yetakchi xususiyatlarini, uning poetik imkoniyatlarini, eng muhimi, folklor asarlarining asrlar davomida o'lmasligini ta'minlovchi yetakchi insoniy go'yalarini to'g'ri ilg'ab olish va ularni o'z davrining muhim muammolari bilan bog'lay olishni talab etadi. Bu kabi asarlarlarning poetik tabiatni, go'yasi va mazmuni folklor bilan sug'orilgan bo'ladi. Biz tahlilga tortayotgan "Ruhlar isyoni" dostoni stilizatsiya xarakteridagi folklorizm tipiga kiradi. Dostonda romantik-falsafiy tafakkur yordamida rivoyat va afsonalarga, xalq naqlariga keng suyangan holda murakkab tuzumdagi kishilarning fojiali hayotini, kuchli qarama-qarshiliklar og'ushida o'tayotgan murakkab qismatni hikoya qiladi. Dostonda otashin isyonkor Bengal shoiri Nazrul Islom hayoti, uning kurash yo'lining tasviri beriladi. Shoir bunda zulm va istibdod, jaholat hukm surgan bir davrda xalqlarning birdam bo'lib yashashligini, ozodlik, tinchlik uchun kurashish orzu qilgan, shu yo'ldagi kurashga o'zini safarbar etgan, isyonkorlik ruhidagi asarlari bilan minglab erksevarlarning muhabbatini qozongan fidoyi shoir hayoti haqida fikr yuritiladi. Bu kabi obrazlarni biz tarixda ko'plab uchratamiz. Shoir dostonni ta'sirli chiqishi uchun falsafiy o'ylar girdobidagi Bengal shoiri Nazrul - Islomni g'oyalarini ifodalashda xalq donishmandligidan, xalqning orzu-o'yłari keng ifodalangan rivoyat va xalq naqlaridan foydalanadi. Bu stilizatsiya xarakteridagi folklorizm uchun muhim xususiyat hisoblanadi. Shoir dostonda Nazrul Islom qismati bilan bog'liq bo'lgan voqealar mantig'ini

rivoyatlar va afsonalar qobig'ida beradi, zotan, bu rivoyat va afsonalar o 'z mazmuni va falsafiy mantig'i bilan Nazrul Islom qismatidan qalbi larzaga kelgan shoirning hayolot ufqi bilan tutashadi, asar syujetining negizidagi yagona fikr oqimini yuzaga keltiradi. Shoir zulm va istibdodga, og 'a-ini bo 'lган muslimon va hindular o'rtasidagi nizo va g'iybatlarga isyon ochgan Nazrul Islomning maqsadi va e'tiqodi, shu e'tiqodga fidoyligi haqida yozar ekan, o'z fikrini hind xalqi o'rtasida keng tarqalgan fidoiylik haqidagi rivoyat mantig'iga ulaydi. Rivoyatda aytilishicha:

Qadim zamon,  
 Ayol dini,  
 Fidoiylik deganlar.  
 Eri o'lsa, xotinini  
 Qo'shib ko'mar ekanlar.


Lekin jangga ketayotgan bir o'g'lon shohga shart qo 'yadi: "men jangda halok bo'lsam, bolalarimni tirik yetim qoldirib xotinimni ham ko'masan. Bunga men rozi emasman, uning o'rniغا hamroh etib jang qurolim ko'milsin", deydi. Bu so'z butun jaholat olamini larzaga soladi, millat udumiga qarshi chiqqan isyonkor sifatida uni qatl etadilar ba qabri uzra:

"Bunda yotar manfur zot!  
 Ko 'ring bu kas holatni,  
 Yotar misli xoru has.  
 Bobolarning odatini  
 U bilmadi muqaddas.  
 His qilmadi  
 U yurakdan –  
 Ayol uchun dunyoda  
 Eri bilan ko'milmakdan  
 Saodat yo'q ziyoda!"

deb yozib qo'yadilar.

Shunday qilib, o'z maqsad va e'tiqodiga fidoyi bo'lган bir zot qurban bo 'ladi. Shoir bu fidoyilikni ulug'laydi va:

Haq uchun  
 Bosh tutgan tikka  
 Mardlar ruhi yor bo 'lsin.  
 Bu dunyoda nohaqlikka,  
 Ko'nmagانلار bor bo 'lsin,



deb xitob qiladi. Bu o'rinda o'z-o'zidan Nazrul Islom jaholatga, adovatga qarshi, ozodlik uchun olib borilayotgan kurashi, bu yo 'ldagi uning e'tiqodi, fidoyiligi bilan ulanib ketadi. Nazrul Islomning qismati qanchalik fofiali bo'lmasin, aslo tushkunlikka tushmaydi. Shoir uning o'z g'oyasi, o'z maslagiga bo'lgan fidoyiligin ulug'laydi. Shoir tutqunda, ammo uning she'rlari kurashni davom ettiradi. Qalblarda isyonkorlik kayfiyatini uyg'otib boradi.

Xuddi shunungdek, asardagi "Abadiyat haqidagi" afsona, "Jaholat to 'g 'risida"gi rivoyatlar, ruhlar haqidagi xalq naqli asarning umumiy ruhi, syujet chizig'i bilan uzviy bog'langan bo'lib, Nazrul Islomning qismati misolida e'tiqod va unga sadoqat, fidoyilik, kelajakka ishonch, ona Vatanga hurmat va muhabbat haqidagi g'oyalarni chuqur ta'sirli ifodalashda faol ko'maklashadi.

Shunday qilib, folklor har qanday lirik yo epik tur uchun manba vazifasini o'tagan. Xalq ijodiyoti san'atkorlarga ilhom, kuch-quvvat va mahorat bag'ishlaydi. Xalq ijodidan bahramand bo'lмаган birorta buyuk san'atkorni tasavvur etib bo'lmaydi. Erkin Vohidov ham bu dostonida qo'llagan rivoyat, afsonalari bilan bugungi kunga shukronalik bilan yashashni o'rgatmoqda. So'z san'atkorlarining folklor asarlaridan ijodiy foydalanishi yozma adabiyotning taraqqiysiga, shu bilan birga, xalq asarlarining saqlanib qolishi va yangicha umr ko'rishiga xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. F. Мўминов. Ўзбек совет адабиёти тараққиётида фольклорнинг роли. Тошкент Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти 1985 йил.
2. Л. Шарипова. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризм. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти Тошкент – 2011 йил.
3. Литературный энциклопедический словарь . – М.: Советская энциклопедия, 1987. - С.469.
4. Саримсоқов Б. Фольклоризм типологиаси масаласига доир// Ўзбек тили ва адабиёти. 1980. 4-сон.
5. Erkin Vohidov. Ruhlar isyoni. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.